

Gulruh Valijon qizi GANIEVA,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika
kafedrası o'qituvchisi
gulruh.ganieva@gmail.com

MAGISTRLARNI ILMIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПОДГОТОВКИ МАГИСТРОВ К НАУЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

IMPROVEMENT OF TECHNOLOGIES FOR TRAINING MASTERS FOR SCIENTIFIC PEDAGOGICAL ACTIVITIES

Annotatsiya: Maqolada magistrnlarni ilmiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyasi yoritilgan bo'lib, uning tadqiqot muammolarini hal qilishda texnologik va aks etuvchi faoliyatni loyihalashtirish qobiliyati, ilmiy faoliyatni samarali olib borishda magistrning individual-psixologik xususiyatlariga bog'liqligi ularning amaliy ishlarini faoliyatda qo'llay olish texnologiyasini takomillashtirish sabablari va farazi ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: magistr, ilmiy pedagogik faoliyat, rivojlanish, kompetentlik, ko'nikma, texnologiya, takomillashtirish, usul, loyihalashtirish, bosqichma-bosqich faoliyat, innovatsiya.

Аннотация: В статье описана технология подготовки магистра к научно-педагогической деятельности, ее возможности для проектирования технологической и рефлексивной деятельности при решении исследовательских задач, зависимость индивидуально-психологических характеристик магистра от эффективного ведения научной деятельности и причины совершенствования их технологии.

Ключевые слова: магистр, научно-педагогическая деятельность, развитие, компетенция, умение, технология, усовершенствование, метод, дизайн, поэтапная деятельность, инновации.

Abstract: The article describes the technology of preparing a master for scientific and pedagogical activity, its possibilities for the design of technological and reflexive activity in solving research problems, the dependence of the individual psychological characteristics of a master on the effective conduct of the scientific activity, and the reasons for improving their technology.

Key words: master, scientific and pedagogical activity, development, competence, skill, technology, improvement, method, design, stage-by-stage activity, innovation.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida va jahon iqtisodiyotini mintaqalashtirish, milliy iqtisodiyotning izchil o'sishini ta'minlash ilmiy fan va ta'limning innovatsion sohasini faol rivojlanmasdan va dinamikasiz, yangi shakllangan kadrlar tayyorlashsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu esa mahalliy universitetlarning magistrantlariga to'liq taalluqlidir.

Postindustrial davr jamiyatida innovatsion xarakterdagi yangi ilmiy yutuqlar asosida rivojlanayotgan yuqori texnologiyalar alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan tanlangan kasbiy sohada ilmiy tadqiqotlar va intellektual faoliyatga qodir mutaxassislariga ehtiyoj katta. Ushbu talablarga muvofiq, metodikaga ega bo'lgan mutaxassisgina ilmiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin, ya'ni ilmiy va uslubiy kompetentsiyani o'zlashtirishi kerak.

Mutaxassisning ilmiy-uslubiy kompetentligi deganda biz uning tadqiqot muammolarini hal qilishda texnologik va aks etuvchi faoliyatni loyihalashtirish qobiliyatini va ularning amaliy ishlarini tushunamiz. Metodologiyani chuqur bilish orqali amalga oshirish maqsadni belgilash, ilmiy muammoni hal qilish algoritmini yaratish, diagnostika, tadqiqot natijalarini loyihalashtirish va taqdim etishdan iborat ilmiy izlanish deyish mumkin.

Magistratura oliy ta'lim tizimining elementi sifatida kelajakdagi ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni ko'paytirishga qaratilgan va o'z missiyasi doirasida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy malakasini va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishni ta'minlaydigan, mavzu bo'yicha muvaffaqiyatli tadqiqot ishlari uchun zarur bilim sohalari egallash bosqichi sanaladi.

O'rganilayotgan obyektlarga nisbatan nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, o'lchash mexanizmlariga ega bo'lish, ehtimollik, statistik va ilmiy bilimlarning boshqa usullari yordamida magistrant tadqiqot ishlari uchun zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni ham o'zlashtiradi.

Ammo, sotsiologik so'rovnomalarda ko'rsatilishicha, barcha bitiruvchi - magistrantlar ilmiy faoliyatga to'liq tayyor emaslar: 70% ular ma'lum bir muammo bo'yicha mustaqil ravishda tadqiqot dasturini ishlab chiqishga qodir emasligiga ishonishadi; 57% eksperiment o'tkaza olmaydi va uning natijalarini tahlil qila olmaydi; 65% metodologiyani bilish rolini tasavvur qilmaydi ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar ekanligi ko'zga tashlanadi.

Ta'kidlash joizki, magistraturani o'z ichiga olgan ta'lim tizimining me'yoriy va amaliy tarkibiy qismiga kompetentsiyalarni kiritish nafaqat universitetda balki mutaxassisning kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarligi darajasini oshirish masalasini hal qilishga imkon beradi hamda nazariy tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Hozirda yuqori kasbiy kompetentlik talab etilar ekan, endi tadqiqot usullarida oddiy bo'lakcha o'qitish emas, balki ta'lim oluvchining bilim faolligini, ularning ongliligi kuzatib borish va ulardan foydalanish qobiliyatini maqsadli shakllantirish hamda o'z kasbidagi yangilik, doimiy izlash qobiliyatini, bilimni mahalliy va xorijiy eng yaxshi ilmiy tadqiqotlarning axborot manbalari bilan ishlash chuqur rivojlantirish joriy etish muhimdir. Pedagogik o'lchovlar nazariyasi va metodologiyasi, kompetensiya/kompetentlikni baholash usullari va diagnostikasi tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan S.Arxaengelskiy, V.Avanesov, A.Anastazi, G.Ball, V.Bespalko, L.Davidova, U.Inoyatov, M.Kudayev, A.Stoof, A.Subetto, M. Schnitger, O.Shixova, J. Erpenbeck, E.Yuzlikayeva kabi pedagog olimlarning ishlarida yoritilgan. [3:368]

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ko'ryapmizki magistrantlarning ilmiy-uslubiy kompetentsiyasini shakllantirish muammosi to'liq ochilmagan. Xususan, tez o'zgaruvchan ilmiy dunyoda tadqiqot ishlariga tizimli motivatsiyasi emas, balki faol va to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchi bo'lish zarurati bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlarini qamrab

oladigan tadqiqot faoliyati jarayoni, pedagogik shartlari va texnologiyalari rivojlantirilishi kerak.

Olimlarning oliy ta'lim muassasasida bo'lajak magistrantlarning ilmiy va uslubiy kompetentsiyasini shakllantirish, pedagogika nazariyasi va amaliyoti muammosiga qaratilayotgan qiziqishiga qaramay, bu masala yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib qolmoqda.[1-499]. Aytish mumkinki, hozirgi paytda turli xil yondashuvlar bilan ilmiy-uslubiy kompetensiyaning mohiyati, uni yuqori oliy ta'limda shakllantirish jarayoni to'g'risida umumiy tushuncha mavjud emasligini dolzarb ekanligini ta'kidlash lozim.

Shunday qilib, ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatni amalga oshira olish qobiliyati, zamonaviy mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi ziddiyatda ilmiy tadqiqotlarga asoslangan eng yangi texnologiyalarni rivojlantirishga va talabalarning bakalavr davrida magistraturaga tayyorlanishida ilmiy-uslubiy kompetentsiyasini shakllantirish modellarini nazariy asoslash, o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirish va yuqori darajadagi kadrlar tayyorlashni namoyon qiladigan mavjud tizimni rivojlantirish ko'zda tutilmoqda hamda ilmiy-uslubiy tarkibni shakllantirishning mazmuni, usullari, shakllari va pedagogik shartlarini ishlab chiqish magistrantlarning kompetentsiyasini rivojlantiruvchi usullarni takomillashtirishi o'rganilmoqda.

Ko'rinib turibdiki, magistrantlarning kompetentlik darajasini rivojlanganligini takomillashtirishda pedagogik-psixologik diagnostika usullaridan foydalanish, ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich diagnostika ishlarini olib borishda magistrantlarni asosiy qiziqishlari va maqsadlariga qarab guruhlariga bo'lish va aniqlash asosiy vazifa qilib belgilangan. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, so'rovnoma, test, tajriba-sinov, matematik modellash, statistik va kvalimetrik tahlil, diagnostika qilish kabi usullardan foydalanish vazifa qilib belgilangan.[2-18]. Farazimiz shundan iboratki, magistrantlarining ilmiy va uslubiy kompetentligini shakllantirish quyidagi hollarda samarali bo'ladi:

– gumanitar ixtisosligi magistrantlarida ilmiy va uslubiy kompetentsiyasini shakllanish xususiyatlari;

– ilmiy va uslubiy kompetentsiyaning tuzilishi, uning mazmuni, shakllangan darajalari va shakllanish ketma-ketligini ochib beradi;

– gumanitar ixtisosligi magistrLARining ilmiy-uslubiy kompetentsiyasini shakllantirish samaradorligi bir qator pedagogik shartlar bilan ta'minlanadi;

– ilmiy va uslubiy kompetentsiyani shakllantirish jarayoni va natijasini tizimli ravishda namoyish qilish uning maqsadi, usullari va shakllarini ochib beradigan model bo'ladi. [4-100].

Magistrlarda kompetentlik darajasini rivojlanganlik darajasini kirish, semestrlararo hamda attestatsion bosqichlaridagi pedagogik diagnostik majmuasining tuzilmaviy va mazmunli tizimi takomillashtirish ham muhim vazifa sanaladi.

Bundan tashqari ilmiy faoliyat davrining asosiy natijasi hisoblangan dissertatsiya ishi mavzusi ishlab chiqarish, ta'lim, iqtisodiyot, fan-texnika sohalaridagi ilg'or va dolzarb masalalarga bag'ishlanib, muayyan bir vazifaning ilmiy asoslangan yechimini topishga, tavsiyalar ishlab chiqishga, statistik ma'lumotlar tahliliga qaratilgan bo'lishi shart. Har bir talabaga ilmiy-tadqiqot, ilmiy-psixologik va ilmiy-pedagogik yo'nalishlari bo'yicha kafedrada yaratilgan bazadan mavzular taqdim etiladi.

Shunga binoan, har bir talaba ilmiy rahbari bilan kelishgan holda o'ziga mavzu tanlaydi. Ilmiy-tadqiqot ishi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bazasida o'tkazilishi mumkin bo'lib, ushbu muassasalar mutaxassisliklar bo'yicha magistrLarni tayyorlashda tadqiqotlarni o'tkazish maydonchasi sifatida qaraladi. Magistrant talabalarning ilmiy-tadqiqot ishi oliy ta'lim muassasasi, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, akademiya va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, korxona va tashkilotlarning tadqiqot bo'linmalarida umumta'lim va maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, maxsus maktab, maktab-internatlar, litsey, kolledjlar bazasida o'tkazilishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot ishi tegishli tartibda rasmiylashtirilgan holda xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari, korxona va tashkilotlarida o'tkazilishi mumkin.

Ilmiy-tadqiqot ishida magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan materiallarni to'plash va bibliografiyani tuzish uchun talabalarning kutubxonalarda ishlashi

zaruriy shart sifatida ko'riladi. Ilmiy-tadqiqot ishi: - magistratura ixtisosligi bo'yicha namunaviy modellar, obyekt va jarayonlarni tadqiq qilish usullarini o'rganish; - tajriba tadqiqotlarining ilmiy texnik ta'minotini o'rganish; - tajriba tadqiqotlar o'tkazish; - tajriba tadqiqotlari natijalarini qayta ishlash, ularni tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar tuzishni ko'zda tutadi.

Oliy ta'lim ta'lim tomonidan tasdiqlangan "Magistratura haqida"gi Nizomda ko'rsatilgan ilmiy-tadqiqot ishi ikki bosqichda ya'ni: - ilmiy-tadqiqot ishi -magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashdan iborat. Ilmiy ish olib boruvchi magistrant o'z faoliyatini ilm-fanda shu masala bo'yicha qanday fikrlar olg'a surilganini, qanday yutuqlarga erishilganini o'rganish bilan boshlashi va bilimlarni o'zlashtirishi zarur. Magistrant o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy merosni chuqur o'rganishi, uning kamchilik tomonlarini ko'ra bilishi, yutuqlaridan bahramand bo'lishi, izlanishni davom ettirib, shu hodisani o'rganishga o'z hissasini qo'shishi kerak.

Magistrlik dasturining o'ziga xos xususiyati shundaki, talaba chuqur nazariy tayyorgarlikni oladi, yuqori darajadagi kasbiy kompetentsiyani egallaydi. Ushbu dastur chuqur o'quv va tadqiqot qismlarini, tadqiqot va ilmiy-pedagogik amaliyotni olib borishni va tezis yozishni o'z ichiga oladi. Magistrga mustaqil ish uchun juda ko'p soat beriladi, bu uning kasbiy faoliyatida usta bo'lish yo'lida juda muhimdir. [8-8].

Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari kafedraning ilmiy-tadqiqot yo'nalishiga, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan Respublika "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ko'zda tutilgan va amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarga mos bo'lishi kerak. Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi har bir mutaxassislik bo'yicha tavsiya etilgan mavzular bankidan magistrant tomonidan mustaqil tanlab olinadi. Mavzu tanlash juda ma'suliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda magistrant talabaga kafedraning yetuk professor-o'qituvchilari maslahat beradi. Mavzu magistrantning asosiy ixtisoslik fani bo'yicha belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Buna magistrantning amaliy tajribasi, muammolarni bilishi, pedagogik jarayondagi axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va taxlil qila

olish imkoniyati, chet tilini bilishi, xorijiy hamda respublika ta'lim tizimidagi erishilgan yutuqlarni nazarda tutishi muhim ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiya mavzusining to'g'ri tanlanishi uning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlaydi.

Magistrantga ilmiy rahbarni biriktirish ham mavzu tanlanish jarayonida amalga oshiriladi. Agarda tavsiya etilayotgan mavzuga ilmiy rahbarlikka bir nechta nomzod ko'rsatilsa, magistr talaba nafaqat mavzuni, balki ilmiy rahbarni ham mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Magistrlik dissertatsiyalari mavzular bankini yaratishda mutaxassislik kafedra bilan hamkorlik shartnomasi tuzilgan ilmiy-tadqiqot institutlari ilmiy hodimlari, boshqa oliy o'quv yurtlari professorlarini jalb etishlari mumkin. Mavzu tanlab olingach, muassasa Ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama etilib, tasdiqlanadi. So'ngra magistrant ikki yillik ilmiy faoliyati bo'yicha shaxsiy reja tuzib chiqishi va shu asosda faoliyat yuritishi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasining bajarilishi asosan shu ixtisoslik bo'yicha fan doktori ilmiy darajasiga va (yoki) ixtisosiy kafedra bo'yicha professor ilmiy unvoniga (istisno tariqasida fan nomzodi ilmiy darajasi va dotsent ilmiy unvoniga) ega pedagog rahbarligida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Миняжова, Ю.И. Компетентностный подход к подготовке научных кадров высшей квалификации в аспирантуре вуза [Текст] / СП. Андреев, Ю.И. Миняжова // Сборник научных докладов VIII Международной конференции ЮНЕСКО. - М.: МГИУ, 2009. - С 498-501
2. Миняжова, Ю.И. Основы научно-методологической компетентности: Раб. программа интегр. курса / СП. Андреев, Ю.И. Миняжова. - М.: МГИУ, 2006. - 18 с
3. Архангельский С. И. Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы. -М.: Высшая школа, 1980. - 368 с.; Аванесов В.С. Язык педагогических измерений //Педагогическая диагностика.
4. Махмудов А.Х. Компетентностный подход к подготовке магистров технических специальностей (методологические и дидактические аспекты). Монография, ISBN-978-9943-10-749-6, Ташкент, 2012.- 168 С
5. Ганиева Г.В. Психологические аспекты диагностики компетенции магистра. - Психология. 2019 -6.119-126
6. Ганиева Г.В. Современный инструментарий контроля и оценки достижений стандартов образования.- "Вестник интегративной психологии" журнал.Ярославль, 2019, выпуск -19, 123-127 стр.
7. Бурлачук Л. Ф. Психодиагностика: учебник для ВУЗов. — СПб.: Питер, 2006. — 351 с. ISBN 5-94723-045-3
8. Осипов, П.Н. Единство воспитания и самовоспитания как основа подготовки конкурентоспособных специалистов // Образование и саморазвитие. 2012. № 4. С. 3—8
9. Осипов П.Н. Что мешает готовить конкурентоспособных специалистов // Образование и саморазвитие. 2013. №3. С. 45-50